

## ISSUES OF IMPROVING LEGAL SERVICE IN THE NATIONAL PEOPLE'S ARMY SYSTEM, PREVENTING INFRINGEMENT AMONG MILITARY PERSONNEL, EMPLOYEES AND YOUNG PEOPLE, AND IMPROVING THEIR LEGAL MINDS AND LEGAL CULTURE

Son of Mamatov Shuhratjon Sha'drach,

Me'shach and A·bed'ne·go.

Public Safety of the Republic of Uzbekistan

Commander of the University Cursors Battalion

polkovnik Abdullayev Zafarjon Nurmuxammadovich.

Public Safety of the Republic of Uzbekistan

4-bosqich university spared

**Anotatsiya:** Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tizimida yuridik xizmat faoliyatini hamda undagi muammolarni o‘rganish, unga ilmiy asoslantirilgan yechim topish va sohani yanada rivojlantirish, shuningdek Milliy gvardiya harbiy xizmatchi va xodimlari hamda ta’lim muassasasi o‘quvchilarining huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida huquqbazarliklarni oldini olishga oid takliflar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Yuridik xizmat, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi, yuridik bo‘lim, huquqiy davlat, Rosgvardiya, huquqiy targ‘ibot guruhi, huquqiy targ‘ibot telegram kanalini, portal.

O‘tgan davr mobaynida yurtimizda davlat organlari, korxona, muassasa va tashkilotlar faoliyati takomillashib, jamiyatda inson qadri yuksalib bormoqda. Ayniqsa, so‘ngi yillarda mamlakatimizda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari e’tibor ancha yuksalib, inson qadri ulug‘lanmoqda. Davlat organlarining fuqarolar oldidagi mas’uliyati oshib boryapdi desam mubolag‘a bo‘lmaydi.

Mukammal qonunchilikni yaratilish, uning so‘zsiz bajarilishini ta’minalash, axoli va davlat organlarining mansabdor shaxslarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ularni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyash, ularning o‘z majburiyatlarini anglab, unga og‘ishmay bajarishga ko‘maklashish hozirgi kunda muhim yo‘nalishlardan biri xisoblanmoqda.

Ta’kidlash lozimki, yuridik xizmat faoliyatini huquqiy tartibga solish muammolari normativ huquqiy hujjatlarda tadqiq etilib, o‘z aksini topgan bo‘lsa, davlat organlarida yuridik xizmat faoliyatining nazariy-konseptual muammolari ilmiy tadqiqot mavzusida deyarli tadqiq e’tilmagan. Shuning uchun, ushbu mavzu hozirgi kunda ancha dolzarb mavzu sifatida ilmiy jixatdan tadqiq etish maqsadga muvofiq xisoblanadi.

Ushbu mavzuni o‘rganar ekanmiz, hozirgi rivojlanib borayotgan mamlakatimizda yuridik xizmat faoliyatini yanada takomillashtirish, kompleks rivojlantirishni taqazo etmoqda. Mamlakatimiz Konstitutsiyasi Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi miqiyosida birinchilardan bo‘lib qabul qilingan konstitutsiyalardan bri hisoblanadi. Shunday ekan, MDH davlatlari ichida huquqiy davlat qurish g‘oyasi mamlakatimiz Konstitutsiyasida ilk bor huquqiy jihatdan mustahkamlangan. Huquqiy davlat barpo etish mustaqilligimizning ilk kunidan paydo bo‘lgan bo‘lib to hozirgi kungacha rivojlanib kelmoqda.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, mamlakatimizda huquqiy davlat barpo etish istiqlolimizning ilk kunlaridan asosiy maqsad qilib olingan. Huquqiy davlat barpo etishd avvalo qonun ustuvorligini ta’minalash lozimdir. Shunday ekan, “jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta’minalash va qonuniylikni mustahkamlashningeng muhim shrtlaridan biri hisoblanadi”.<sup>1</sup>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minalash borasida oldimizga aniq vazifalarni belgilab bermoqda. Yuridik xizmat ana shu maqsadni ro‘yobga chiqarishda muhim bo‘g‘in bo‘lgani uchun ham bu sohani takomillashtirishga ehtiyoj tug‘ildi.

Yuridik xizmat tushunchasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bu davlat organi va tashkilotlarining faoliyatini huquqiy jihatdan ta’minalashdir. Shunday ekan, hozirgi kunda davlat organi va tashkilotlarining faoliyatini

yanada rivojlantirish, uni ayniqsa xalq manfaatlari yo'limda xizmat qilishini ta'minlashda aynan o'sha organ va tashkilotlarning yuridik xizmat bo'lim va bo'linmalarining o'rni va roli katta. Shuning uchun, yuridik xizmat faoliyatini yanada takomillashtirish orqali ularning bu sohadagi imkoniyatlarini yuksaltirish va shu orqali davlat organi va tashkilotlarining faoliyatini ham takomillashtirishdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar kunidagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sod Farmonida belgilangan maqsadlarni tizimli ravishda sifatli amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining yuridik xizmat faoliyatida quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Avvalo, Milliy gvardiya tizimidagi ichki idoraviy hujjatlarni ishlab chiqish hamda ishlab chiqilayotgan hujjatlarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligini tekshirish. Bundan tashqari, norma ijodkorligi sohasida ishtirok etish. Ma'lumot tariqasida shuni ta'kidlab o'tmoqchimanki, Rossiya Federatsiyasining Milliy gvardiyasi (Rosgvardiya)ning yuridik xizmat xodim va mutaxassislari ishtirokida o'tgan 2021 yilning o'zida 22 ta qonun, 80 ta qaror, 156 ta ichki idoraviy hujjat, ya'ni MG qo'mondonining buyruqlarini ishlab chiqishda ishtirok etgan. Doimiy huquqbazarliklarni oldini olishga qaratilgan targ'ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirish. Har yilgi huquqiy targ'ibot materiallarni ishlab chiqish va tasdiqlash. Yil yakunida huquqiy targ'ibot ishlari bo'yicha yillik uslubiy qo'llanma ishlab chiqish va tajriba sifatida bo'linmalarga tarqatish. Aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmun va mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish, fuqarolar ongida "Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!" degan hayotiy g'oyani mustahkamlash<sup>1</sup> maqsadida quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq va har tomonlama foydali deb xisoblayman. Huquqiy targ'ibot va tashviqot ishlarini uzluksiz ravishta sifatli amalga oshirish maqsadida Milliy gvardiya tizimida "huquqiy targ'ibot guruhi" va "huquqiy targ'ibot telegram kanalini" ochishni taklim qilaman. Ushbu kanalning afzalligi shundaki, kanaldan Respublikamizning istalgan joyidan turib, istalgan vaqtida, kunning har qaysi vaqtida bema'lom foydalanish imkoniyatini beradi. Ushbu kanal orqali uzatilayatgan ma'lumotlar huquqiy targ'ibot hamda huquqbazarliklarni oldini olishga qaratiladi, sababi u yerda huquqbazarlikdan kelib chiqadigan oqibatlar, huquqbazarlik uchun javobgarlik va jazo masalalari ham muntazam ravishda tanishtirilib boradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5618-sod Farmonida belgilangan yuqoridaq vazifasini amalga oshirishda tashkil etiladigan ushbu guruh va kanalning o'rni va roli katta bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tizimidagi harbiy xizmatchi va xodimlarga bepul yuridik maslahat berish portalini yaratish. Harbiy xizmatchi va xodimlar ning kundalik hayotida ko'p uchraydigan huquqiy masalalar yuzasidan savol-javob tarzida o'z savollariga javob olish imkoniyatiga ega bo'lgan telegram kanali muntazam ravishda faoliyat olib borishi va bu savollarga javob berish yuridik xizmat boshqarmasi zimmasiga yuklatilishi maqsadga muvofiq deb xisoblayman.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tizimidagi yuridik xodimlari tomonida huquqbazarlik alomatlari aniqlangan ta'lim muassasalariga shu turdagи huquqbazarliklarni oldini olish bo'yicha ta'lim muassasasi rahbariyati bilan kelishilgan holda maxsus dastur ishlab chiqish va har oyda kamida bir marotaba profilaktik dars mashg'ulotlarini o'tish, ta'lim muassasasi rahbariyati taqdimiga ko'ra tarbiyasi o'g'ir o'quvchilarga qo'shimcha ishlarni amalga oshirilsa, yoshlар o'rtasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga hamda huquqbazarlikdan tiyilishga xizmat qiladi deb o'layman.

Xulosa qiladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tizimidagi yuridik xizmat o'z navbatida tizimdagi boshqarma, bo'lim, muassasa, o'quv markazlarida qonunchilikni ta'minlash; tizimdagi barcha turdagи harbiy xizmatchi yoki xodimlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, xatto dastlabki tergov davomida hamda sud jarayonida ham ushbu harbiy xizmatchi yoki xodimlarning huquqlarini uning himoyachisi bilan bir qatorda himoya qilish norma ijodkorligi jarayonini modernizatsiya qilish, qonunchilik hujjatlarining qat'iy ijrosini ta'minlash zarurdir.<sup>2</sup>

Xulosa o'rina shuni aytmoqchimanki, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasida yuridik xizmat tizimini oqilona tashkil etishga erishish, uning xizmat vazifalarini yanada kengaytirish o'z navbatida, demokratik huquqiy davlat bunyod etishga, fuqarolik jamiyatini shakllantirishga, milliy qonunchilikni

takomillashtirishga, qolaversa, jamiyatda hamda harbiy xizmatchi va xodimlar, shuningdek, yoshlar orasida ayniqsa, ta’lim muassasasi o‘quvchilari o‘rtasida huquqiy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-sun Farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar kunidagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sun Farmoni.